

## JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIK LAR SODIR ETILISHINING UMUMIY PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

To'rabekov Nursulton Abdugodir o'g'li  
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
3-o'quv kurs kursanti

### ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif huquqbazarliklar profilaktikasiga oid normativ huquqiy hujjarlarni, mamlakatimzda so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etishga doir huquqiy hujjatlarni, huquqbazarliklar sodir etilishining umumiyligi profilaktikasini tashkil etish yuzasidan adabiyotlarda keltirilgan jumlalarni ko'rsatib o'tib mavzuni ilmiy tahlil qilgan.

**Kalit so'zlar:** *Huquqbazarlik, huquqbazarliklar profilaktikasi, professional tuzilma, platforma, kriminogen vaziyat, kompleks mexanizm.*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье автор провел научный анализ темы, показав нормативно-правовые документы, касающиеся профилактики правонарушений, правовые документы, касающиеся борьбы с преступностью и организации профилактики правонарушений в нашей стране за последние годы, представленные в литературе приговоры, касающиеся организаций общеуголовной преступности. профилактика.

**Ключевые слова:** *Преступность, предупреждение преступности, профессиональный состав, площадка, криминогенная ситуация, комплексный механизм.*

### ANNOTATION

Through this article, the author scientifically analyzed the topic by showing normative legal documents related to crime prevention, legal documents related to fighting against crime and organization of crime prevention in our country in recent years, sentences presented in the literature regarding the organization of general crime prevention.

**Key words:** *Crime, crime prevention, professional structure, platform, criminogenic situation, complex mechanism.*

Jahonda huquqbazarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbazarliklar profilaktikasining zamонавиј ташкилий-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni

qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzARB hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi<sup>1</sup>

Shuningdek, huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllandi. Huquqbazarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar ko'rish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlashni, ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda profilaktik chora tadbirlarin amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining roli kengayib, ular mamuriy hududda mahalla raisi va uning o'ribbosarlari bilan birgalikda, har bir ko'cha, har bir xonadonga birma-bir kirib, fuqarolarning ijtimoiy ahvolini o'rganish, taklif va tavsiyalarini berishlari muhim masalalardan biri hisoblanishi lozim.

Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligidagi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususan shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida ahamiyat berilgan. Afsuski, so'ngi yillarda butun dunyoda mahalla, jamiyatdagi munosabatlar doirasida ko'plab jinoyatlar va turli ko'rinishga ega bo'lgan huquqbazarliklar sodir etilmoqda. Bu kabi jinoyat va huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish, sabab va shrt-sharoitlarini bartaraf etish hamda jabrlangan shaxslar bilan ishlash, ayniqsa mahalla, jamiyat doirasida jinoyat va huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan samarali profilaktik choralarни ishlab chiqish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, turli tahdid va tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, xususan, hozirgi kunda mahalla tizimida ko'payib borayotgan oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini samarali tashkil etishning ma'naviy, huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Bu kabi qonun hujjatalari talablari asosida inson huquq va erkinliklarini, xususan jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oila manfaatlarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni har qanday ko'rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Ichki Ishlar Vazirining buyruqlari qa'bul qilinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyat va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini tashkil etishda eng quyi tizim Mahalla uquq tartibot maskan (MHTM)larida profilaktika inspektorlari boshqa davlat organlari, sohaviy xizmatlar, ommaviy axborot vosita (OAV)lari va fuqarolar bilan hamkorlik qilib, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishi sabab va shart-sharoitlarini aniqlab, shu vaqtning o'zida bartaraf etish choralarini ko'rmoqda. Shuningdek, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishi sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha korxona, muassasa, tashkilotlarga taqdimnomaga kiritish tartibi ham amaliyotda o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining umumiy profilaktikasi o'zining keng ko'lamli ekanligi bois jamiyat barcha a'zolari uchun o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil
2. Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/jamoat-xavfsizligini-taminlashda-profilaktika-inspektorining-roli-qanday>
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq-ezgu-tashabbuslar->